

KITOB GEOLOGIYA MILLIY TABIAT BOG'I HUDUDIDA TARQALGAN FLORA HAMDA FAUNALAR TARQALISHI

Sultonov Shuxrat Adxamovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Navotova Dilnoza Ibrogimovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, g.f.f.d (PhD)

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Raximova Dildora Zubaydulla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

O'zbekiston, Shahrisabz shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kitob geologiya milliy tabiiy bog'i hududida tarqalgan geologik turfaliklar, o'simlik va hayvonot dunyosi tarqalishi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: geologiya, paleontologiya, litologiya, stratigrafiya, paleozoy, era, devon, ordovik, davr, soy, Tetis dengizi, paleontologik-stratigrafik obyektlar, Qizil kitob, Xo'ja Qo'rg'on darasi, Zinzilboy soyi.

DISTRIBUTION OF FLORA AND FAUNA IN THE TERRITORY OF KITOB GEOLOGICAL NATIONAL NATURE PARK

Sultanov Shukhrat Adkhamovich

Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute,

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Navotova Dilnoza Ibrogimovna

Associate Professor of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute, UZ

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Raximova Dildora Zubaydulla kizi

student of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Shakhrisabz city

Abstract. This article presents information on the distribution of geological diversity, flora, and fauna in the territory of the Kitab Geology National Natural Park.

Keywords: geology, paleontology, lithology, stratigraphy, Paleozoic, era, Devonian, Ordovician, period, stream, Tethys Sea, paleontological-stratigraphic objects, Red Book, Khoja Kurgan Gorge, Zinzilboy stream.

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ФЛОРЫ И ФАУНЫ НА ТЕРРИТОРИИ КИТАБСКОГО ГЕОЛОГИЧЕСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДНОГО ПАРКА

Султанов Шухрат

*доцент Шахрисабзского государственного педагогического института,
Узбекистан, город Шахрисабз*

Навотова Дилноза

*Доцент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Рахимова Дилдора

*студент Шахрисабзского государственного педагогического института
Узбекистан, город Шахрисабз*

Аннотация. В данной статье представлена информация о распространении геологического разнообразия, флоры и фауны на территории Китабского геологического национального природного парка.

Ключевые слова: геология, палеонтология, литология, стратиграфия, палеозой, эра, девон, ордовик, период, ручей, море Тетис, палеонтолого-стратиграфические объекты, Красная книга, ущелье Ходжакурган, ручей Зинзилбой.

Kirish. O‘zbekiston janubida Zarafshon tog‘ining janubiy – g‘arbiy yonbag‘rida Markaziy Osiyo bo‘yicha yagona bo‘lgan Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i joylashgan. Bu milliy bog‘ hozirgi kunda butun Mustaqil davlatlar hamdo‘stli (MDH) da yagona bo‘lib, unda boshqa qo‘riqxonalarda olib borilmaydigan ilmiy – geologik ishlar bajariladi. Yer kurrasining tabiiy – ilmiy yodgorliklari bo‘lgan paleontologik litologik va stratigrafik yodgorliklarni muhofaza etadi va reja asosida ular ustida ilmiy – tekshirish ishlari olib boriladi.

Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i O‘zbekiston Respublikasi Davlat Geologiya va Mineral Resurslar Qo‘mitasi tasarrufida bo‘lib, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan. Qo‘riqxona 1976-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi noyob geologik obyektlarni, stratigrafik kesmalarni va paleontologik topilmalarni muhofaza qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borishdir

Asosiy qism. Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan bo‘lib, u mamlakatning eng noyob va ilmiy ahamiyatga ega tabiiy-madaniy meros obyekti sanaladi. Qo‘riqxona 1979-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 206-sonli qarori bilan tashkil etilgan va u beqiyos geologik obidalarini, stratigrafik kesmalarni, paleontologik topilmalarni asrab-muhoafaza qilish hamda ilmiy tadqiqotlar uchun yaratilgan tabiat qo‘riqxonasidir.

Qo‘riqxona hududi Zarafshon tog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy etaklarida, 1300 dan 2650 metr balandlikda joylashgan bo‘lib, uning maydoni taxminan 3938 gektar ($\approx 53,78 \text{ km}^2$) ni tashkil etadi.



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududidan lavhalar



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududidan lavhalar

Ushbu geologik hudud O'zbekiston Respublikasi Geologiya va minerallar resurslari davlat qo'mitasiga bevosita qaraydi va boshqa tabiiy qo'riqxonalar orasida o'zining noyob ilmiy ahamiyati bilan ajralib turadi.

Stratigrafik va geologik ahamiyati. Hudud geologik jihatdan dunyoda juda noyob bo'lgan uzluksiz paleozoy stratigrafik kesmalarga ega. Bu yerda Yer tarixining qadimgi davrlari, xususan ordovik, devon va karbon (toshko'mir) davrlariga oid tog' jinslari, qatlamlar va ularning tarkibida saqlangan organik dunyo qoldiqlari keng tarqalganligi bilan ahamiyatli.

Bog' hududidagi kesmalar tarkibida qadimiy dengiz hayotidan qolgan o'ta yaxshi saqlangan o'simlik va hayvon izlari (braxiopodalar, trilobitlar, marjonlar, foraminiferalar va boshqalar) mavjud bo'lib, ular Yerning 300- 407 million yillik geologik tarixini o'rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududda ilmiy o'rganishlar



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududda ilmiy o'rganishlar

Zinzilban bo'lagi hududi xususan Devon davrining pastki o'tish oralig'ining global stratigrafik etaloni sifatida tan olingan. Bu kesma 1989-yilda Xalqaro Geologiya Kengashi tomonidan etalon sifatida qabul qilingan va 1996-yilda Xalqaro Geologik Fanlar Ittifoqi tomonidan tasdiqlangan.

Ushbu stratigrafik qoldiqlar orqali olimlar Yerning geologik tuzilishi, tog'larning shakllanish jarayoni, dengiz sathining o'zgarishi hamda hayotning evolyutsiyaviy yo'nalishlari haqida aniq va chuqur ma'lumotlarni oladi.

Paleontologik boylik. Milliy bog' hududidagi qatlamlarda minglab geologik topilmalar saqlangan. Bu topilmalar dengiz tubida yashagan qadimgi organizmlarning izlarini aks ettiradi va ular:

- keng doiradagi hayvon va o'simlik turlarini,
- ular qoldirgan skelet, iz va strukturalarini,
- mikro organizmlarni o'z ichiga oladi.

Paleontologik topilmalar nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy va Yevropa olimlari orasida ham keng tadqiq etiladi va xalqaro ilmiy loyihalarda qo'llaniladi.

Tabiatshunoslik va bioxilma-xillik. Geologik sayyohlik nuqtai nazaridan boy bo'lishi bilan birga, qo'riqxonada botanik va zoologik xilma-xillikka ham ega. Bu hududda o'suvchi o'simliklar soni juda ko'p bo'lib, ular orasida turli xil endemik turlar uchraydi. Archa (*Juniperus seravschanica*) kabi daraxtlar turlari bu mintaqaning asosiy o'rmon maydonlarini tashkil qiladi.

Shuningdek, milliy bog'ning hayvonot olami ham boy bo'lib, u yerdagi fauna tarkibiga:

- yovvoyi cho'chqa;
- tulki;
- bo'ri;
- turli qush turlari;
- rovullar, endemik qo'ng'izlar va boshqalar kiradi.

Ko'rinib turibdiki, aniq stratigrafik sxemalar tuzilishi – geologik syomkalar asosi ekanligi, ayniqsa, uning markaziy qismi bo'lgan stratigrafik kalonkalar yasashda ajralmas qismi ekanligi ayon bo'lmoqda. Buning uchun cho'kindi jinslarni iloji boricha maksimal aniq ko'rinuvchi qatlamlarga bo'lish, har bir qatlamning yoshi va kelib chiqishi paleontologik topilmalar asosida isbotlangan bo'lishi kerak.

Faqatgina paleontologik tosh qoldiqlargina har bir qatlam to'g'risida aniq ma'lumot beradi, strukturali – faunal zonalar chegarasini aniq ko'rsatadi, regional to'qnashish bo'lgan joylar aniqlanadi. Bog' maydonidagi toshga aylangan o'simlik va hayvon qoldiqlarini o'rganish yuqoridagi amaliy vazifalarni va stratigrafik tafavvutlarni umumiy va mintaqaviy vazifalarini yoritish imkonini beradi.



Kitob geologiya milliy tabiat bog'i hududda flora (o'simliklar) dunyosi tarqalishi

Ilmiy, ta'limiy va ilmiy-turistik ahamiyati. Kitob geologiya milliy tabiat bog'i geologiya, paleontologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadqiqotlar olib boriladigan markaz hisoblanadi. Bu yerga ilmiy ekspeditsiyalar, talaba va doktorantlar, xorijiy olimlar tashrif buyuradi va ilmiy seminarlar, dala amaliyotlari o'tkaziladi.

Shuningdek, qo'riqxonaning geologik maydonlari uchun maxsus yo'laklar, kuzatuv maydonchalari va paleontologik yig'ma to'plamlar ham mavjud bo'lib, ular sayyohlar va tadqiqotchilar uchun ochiq.

Xulosa. Kitob geologiya milliy tabiat bog'i O'zbekistonning geologik va tabiiy merosining bebaho qismidir. Bu yerda paleozoy davrining uzluksiz stratigrafik kesmalari saqlangan bo'lib, ular Yer tarixini va hayot evolyutsiyasini o'rganishda muhim ilmiy resurs vazifasini o'taydi. Qo'riqxonaga nafaqat ilmiy markaz, balki sayyohlar uchun ham noyob tabiat yodgorligidir.

Yer kurrasida minglab mutaxassis paleontologlar bor. Ular organik hayot paydo bo'lishi, rivojlanish qonunlarini o'rganadi. Bu o'z navbatida geologlarga qo'l keladi. Umuman yer kurrasining har qanday qismining geologik tuzilishini bilish o'sha joydagi foydali qazilmalarni ko'r – ko'rona izlashga qaraganda oson kechib, geolog qo'lidagi paleontologlar tuzgan ma'lumotlar asosida topilgan foydali qazilmalar ancha arzonga ham tushadi. Har bir paleontolog o'zi o'rgangan region to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'ladi va bu ma'lumotlar regiondan – regionga qismma – qism yig'ilib geolog qo'lidagi asosiy hujjat, geologik xaritaga aylanadi. Butun dunyo paleontologlari o'zaro uchrashishar ekan, ular o'zlaridagi ma'lumotlarni almashishadi, yig'ishadi va tahlil qilishadi. Shu sababli o'sha vaqtda tashkil etilgan. Kitob geologiya milliy tabiat bog'i bu mas'ul vazifani butun dunyodagi va Markaziy Osiyo hududidagi paleontologlarning yig'ilib maslahatlashadigan joyiga aylandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Заповедники СССР Заповедники Средней Азии и Казахстана, Москва. 1990.
2. А. Худайбердиев. охрана природы в Узбекистане. Ташкент. 1989.
3. К изучению животного и растительного мира Узбекистана. Ташкент. 1984.
4. Красная книга Узбекской ССР. Ташкент. 1938.
5. Кашкадарьинская область. Том 1 природа. Ташкент. 1959.
6. Китабскиц государственный геологический заповедник. Ташкент. 1989.
7. Ўзбекистон ССРда табиатни қўриқлаш ҳақида қонун. Тошкент. 1974.
8. Файзуллаев.М.А. Жанубий Ўзбекистонда аграр-индустриал циклининг шаклланиши ва ривожланиши. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2015, 46, 103-105.
9. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447.
10. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104.

11. Sultonov Shuxrat Adxamovich, & Sultonov Nekro'z Aliqulzoda. Kitob geologik qo'riqxonasi hududida tarqalgan paleontologik yotqiziqlar joylashuvi haqida qisqacha tahlil. Educational Research in Universal Sciences. -VOLUME 3 ISSUE 12 DECEMBER 2024, https://t.me/Erus_uz, 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14499481>
12. Nazarov M.G. Qashqadaryo viloyatining antropogen landshaftlarini tasniflashning ayrim masalalari // Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. -Qarshi, 2013. –B.71-74.
13. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyati tog'li hududlarida foydali qazilmalarni geografik tarqalishi. Экономика и социум №3(130)-1 2025, www.iupr.ru. ЭС-2025-030076, ISSN 2225-1545.
14. Sultonov Sh.A., Navotova D.I. O'zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. - №2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545
15. Sultonov Sh.A. Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geografik jihatlari va tabiatga salbiy ta'siri masalalari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. -№4. 2025-yil. 39-41-betlar.